

FARMAKOLOGIYA FANINI TIBBIYOTDAGI O'RNI VA QISQACHA TARIXI

Tillaboyeva Surayyo Zakirjonovna

2-son Farg'ona Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Umumkasbiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada farmakologiya fanini tibbiyotdagi o'rni va qisqacha tarixi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: farmakologiya, farmatsiya, farmakokinetika, farmakodinamika

THE ROLE OF PHARMACOLOGY IN MEDICINE AND A BRIEF HISTORY

Annotation: This article describes the role of pharmacology in medicine and its brief history.

Keywords: pharmacology, pharmacy, pharmacokinetics, pharmacodynamics

Farmakologiya (lotinch- 'pharmakon' — dori va 'logos'- fan) — Dorishunoslik fani; odam va hayvonlar organizmiga dorilar yuborilgandan keyin ularda ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Farmakologik moddalar organizmning turli a'zolari, to'qimalari, hatto hujayralari faoliyatini o'zgartirishi mumkin.



Farmakologiya bo‘limlari:

- * Farmatsiya
- * Umumiy Farmakologiya
- * Xususiy Farmakologiya



- **Farmatsiya** — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo‘yicha izlanishlar, tadqiqotlar, shuningdek, ularni ishlab chiqarish, tayerlash, sifatini nazorat qilish, standartlash usullari, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, saqlash, ular haqida axborot berish, dorixona va davolash muassasalariga yetkazib berish va sotish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladigan ilmiyamaliy faoliyatlar majmui.

- **Umumiy farmakologiya**- dorilarning organizm bilan o‘zaro ta’sirini, umumiy qonuniyatlarini, farmakokinetika; farmakodinamika chuqurroq o‘rganadi.

- **Xususiy farmakologiya** — dorilarning alohida, konkret guruhlar va bo‘limlarining kinetika va dinamikasini o‘rganadi

Tibbiyotdagi o‘rni

Tibbiyot olamida farmakologiya alohida ahamiyatga ega: bir tomonda, tibbiyotning asosiy nazariy fanlari — fiziologiya, patologik fiziologiya, biokimyo bo‘lsa, ikkinchi tomonda amaliy fanlar— terapiya, pediatriya, xirurgiya va boshqalar turadi. Farmakologiyadagi nazariy bilimlar amaliy tibbiyotda qo‘llaniladi.

Qisqacha tarixi

Farmakologiya tarixi insoniyat tarixi bilan birga boshlangan, chunki o‘sha davlarda ham odamlar kasal bo‘lganlar, yirtqich hayvonlarga, yong‘inlarga duch kelganlar, ilonlar, chayonlar chaqqan, ular atrofdagi giyohlardan, hayvonot olamidani shifo, dori-darmon izlaganlar. Eramizdan 3600 yil ilgari papirusga yozilgan kitob „Har xil a’zolarga qo‘llanadigan dorilar to‘g‘risida“ deb nomlangan. Farmakologiya fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo olimlarining hissasi katta bo‘lgan. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o‘simliklar bilan davolash keng tus olgan. Xitoy tibbiyotning asoschisi "Shell Nung" bundan 3 ming yil ilgari o‘z asarlarida o‘simliklarning sinonim nomlari, botanik ta’rifi, o‘simliklardan mahsulotlar tayyorlash

davrlari va usullari, doridarmonlaming ta'sir doirasi, qo'llanilishini bayon etgan. Qadimgi yunon shifokorlari Buqrot (e.o 460-377), Dioskorid (1asr), Jolinus (Galen 2asr) dori-darmonlar yaratishda tajribalar olib borgishgan.

Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning dorivor giyohlar va moddalar haqidagi asarlari F. taraqqiyotiga muhim turtki bo'ldi. Ibn Sinoning „Tib qonunlari“ asarida qayd etilgan 811 xil oddiy dorilarning 612 tasi dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish usullariga bag'ishlangan.



Abu Rayxon Beruniy]]



Abu Ali ibn Sino

XVI asr da G'arb olimi **Paratsels** farmakologiyani kimyoviy moddalar bilan to'ldirgan, tibbiyotda yatrokimyo („yatros“—vrach) yo'nalishining asoschisi bo'lgan. XVIII asr oxirlarida **Ganeman** dorishunoslikda gomeopatiya yo'nalishiga asos solgan. Bunda davolash monandlik, o'xshashlik qonuniga asoslangan, gomeopatik dorixonalar hozirgi kunda ham keng tarqalgan. XIX-asrga qadar F. asosan empirik tarzda

rivojlangan. Shu davrga kelib eksperimental F. shakllandi. Bunda F. Majandi, Klod Bernar, R. Buxgeym, I. P. Pavlov, V. V. Zakusov, M. D. Mashkovskiy va boshqa jahon olimlarining ulkan hissalarini bor.

O'zbekistonda F. 1920-yil Toshkentda Turkiston Davlat Universiteti Tibbiyot fakulteti qoshida F. kafedrasini tashkil etilishi tufayli rivojlandi. Keyinchalik respublikaning turli shaharlaridagi tibbiyot institutlari qoshidagi F. Kafedralarida ochildi. O'zbek farmakologlaridan, professor I.K. Kamilov, M. B. Sulstonov, O'.B. Zokirov, Q.N. Najmiddinov, S. S. Azizova va boshqalarning izlanishlari natijasida dorivor o'simliklar va kimyoviybiologik faol moddalardan 200 dan ortiq shifobaxsh moddalar ajratib olindi, ularning 30 dan ortig'i klinik tekshiruvlardan o'tkazilib, tibbiyot amaliyotiga tadbiiq etildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Respublika Sog'liqni Saqlash Vazirligi qoshida Dorivor moddalar va tibbiyot texnikasi sifatini nazorat qilish hamda standartlash bo'yicha Bosh boshqarma hamda ular tarkibida farmakologiya va farmakopeya qo'mitalarining tuzilishi munosabati bilan F. fani yanada ravnaq topdi. Qisqa muddat ichida 20 dan ortiq shifobaxsh o'simliklar va 10 dan ortiq yangi biologik faol preparatlar (piratsin, kupir, fentriazolin, kobavit, fensulkal, glipil, mumiyo tabletkasi, navbaxtin, benzketozon va boshqalar) tibbiyotda qo'llash uchun tavsiya etildi. Hozirgi kunda farmakologiyaning rivojlanishida akademiklardan M.D. Mashkovskiy va D. A. Xarkevich katta hissa qo'shib kelmoqdalar, ayniqsa, M. D. Mashkovskiyning „Don moddalari“, D. A. Xarkevichning talabalar uchun yozilgan „Farmakologiya“ darsligi fanni o'zlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Fan maqsadi: Farmakologiyaning asosiy maqsadi turli o'tkir va surunkali kasalliklar, xastaliklarning oldini olish, davolash, zaruriy chora tadbirlar ko'rish uchun turli xil yangi dori moddalarini kashf qilish, ularning ta'sirini o'rganib, amaliy tibbiyotga tatbiiq etishdan iboratdir.

Fan vazifasi: Yangi dorilarni tuzilishi va tarkibini o'rganish,

1. Eksperiment hayvonda sinab ko'rish,
2. Sinovdan o'tganlarini ishlab chiqarish uchun SSV dan ruxsat olish,
3. Turli shaklda ishlab chiqarish va aholiga (dorixonalarga) yetkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik. Tashkent: Ibn-Sino, 2000, 2002, 2006. Qo'shimcha manbalar
1. Faxrutdinov S.F. Farmakologiya. Darslik. Tashkent: Ibn-Sino, 1995.
2. Maxsumov M.N., Malikov M.M. Farmakologiya. Darslik. Tashkent: Ibn-Sino, 1997.
3. Xolmatov X.X., Xarlamov I.A. Osnovnie lekarstvennie rasteniya Sredney Azii. Monografiya. Tashkent: Medistina, 1984.